

3rd FORUM OF DEVELOPMENT STRATEGY: GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS

1st CONFERENCE: GUIDELINES FOR ACHIEVING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE DIGITAL ECONOMY

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ

2030

2nd CONFERENCE: GREEN ACCOUNTING AND DIGITALIZATION AS THE NEWEST VECTORS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT

CONFERENCE "ICFDS"



TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

<https://strategy2024.tsue.uz/>

17-18 OCTOBER 2024

2030 | «UZBEKISTAN» STRATEGY

GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: "O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS: 'UZBEKISTAN-2030' STRATEGY"

Macroeconomic stability, human capital and sustainable growth
World economy and international economic relations
Industry 4.0
International business and cross-national business
Sustainable
Digital business
Artificial intelligence and digital technologies
Digital transformation
Digital technologies
Quantitative measurement of economic growth

17-18 OCTOBER

2024 TRENDS

GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS: "UZBEKISTAN-2030" STRATEGY

CONFERENCE ГЛОБАЛЬНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ: СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН-2030»

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI 2024

ELEKTRON ILMIY JURNALI MAXSUS SON

strategy2024.uz

CONFERENCE III: SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT STRATEGY: GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS
NEW2AN, TRENDS
ICFDS
CONFERENCE "IFRS" 2024

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
INTELLIGENT
INTEGRAL
NEW2AN, ICFDS, IFRS

UZBEKIS STRATEG

October 17-18, 2024

2030

CONFERENCE III: NEW2AN, ICFD

УЗБЕКИСТОН
РАQAMЛИ ИQTISODIYOT
VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
2024



**RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ
ТЕХНОЛОГИИ**

Elektron ilmiy jurnal | Electronic scientific journal

MUASSIS | FOUNDER

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Tashkent State University of Economics**

TAHRIR KENGASHI RAISI | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – t.f.d., professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – doctor of technical sciences, professor

BOSH MUHARRIR | EDITOR-IN-CHIEF

Abdullaev Munis Kurbonovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent

Abdullayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI | DEPUTY CHIEF EDITOR

Vafoev Boburjon Rasulovich – i.f.n., dotsent

Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

MA‘SUL KOTIB | EXECUTIVE SECRETARY

L.A. Ablazov, I. Kungratov | L.A. Ablazov, I. Kungratov

VEB-ADMINISTRATOR | WEBMASTERS:

N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Maxmudov | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

TAHRIRIYAT A‘ZOLARI | EDITORIAL BOARD

S.S. Gulyamov – i.f.d., akademik.

B.A. Begalov – i.f.d., professor.

M.P. Eshov – i.f.d., professor.

O.Q. Abduraxmonov – i.f.d., dotsent.

K.B. Axmedjanov – i.f.d., professor.

I.M. Alimardonov – i.f.d., dotsent.

R. Salixodjaev – i.f.b.f.d. (PhD).

X. Amonov (Chexiya) – Professor

Karina Tatek Banetti (Chexiya) – Professor

O. Abdurazzakov (Germaniya) – Professor

Eko Shri Margianti (Indoneziya) – Professor

D.M. Nazarov (Rossiya) – Professor

N.M. Surnina (Rossiya) – Professor

Mark Rozenbaum (AQSh) – Professor

Abdul-Rashid (Afg‘oniston) – PhD.

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr) – PhD.

B. Saidov (AQSh). – PhD.

U. Axmedov (Daniya Qirolligi) – PhD.

A.A. Ismailov – i.f.d., professor.

I.E. Jukovskaya – i.f.d., professor.

T.S. Qo‘chqorov – i.f.d., professor.

R.A. Dadabaeva – i.f.n., dotsent.

Sh.I. Xashimxodjaev – i.f.n., dotsent.

A.A. Abidov – t.f.n., dotsent.

I.M. Abdullaeva – i.f.n., dotsent.

N.B. Abdusalomova – i.f.d., dotsent.

Sh.S. Egamberdiev – i.f.b.f.d. (PhD).

R.X. Alimov – i.f.d., professor.

A.U. Qobilov – i.f.n., dotsent.

R.X. Nasimov – t.f.b.f.d. (PhD).

S.S. Qulmatova – i.f.b.f.d. (PhD).

UDK: 330.34:005.44(575.1)(08)

KBK: 65.011(50)ya43

G 55

MUNDARIJA

Raqamli biznes moliyaviy boshqaruvida «yashil» korporativ hisoblarni qabul qilishning asosiy afzalliklari.....	4
Teshaboyev To‘lqin Zakirovich	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish.....	10
Masharipov Farrux O‘tkirovich	
Business intelligence systems and brand equity management in high education: a critical assessment through the ethical lens.....	18
Zufarova, Nozima Gulamiddinovna	
Mathematical modeling of corruption dynamics using numerical methods.....	23
Jabborov N.M., Eshdavlatova S.E.	
Xalqaro intellektual migratsiya sohasidagi zamonaviy tendensiyalar.....	32
Islamov Baxtiyor Anvarovich, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna, Gazieva Sulxiya Saidmashrafovna	
Оценка влияния кибербезопасности на финансовую устойчивость организаций: адаптация к растущим угрозам в современной экономике.....	41
Атания Зов Жасурбек Хамидович, Сулейманов Ильнур Радикович	
Yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb qilishning asosiy yo‘nalishlari.....	48
Otamuratov S.S.	
Система ключевых показателей эффективности труда: разработка и внедрение kpi на предприятиях.....	55
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна, Холматов Мухриддин Мумин угли	
Correlation analysis of the relationship between indicators of stability of the banking sector and macroeconomic indicators.....	62
Sharipova Nilufar Hikmatullayevna	
Factors determining liquidity management in commercial banks and a comparative analysis of emerging markets.....	68
Sattorova Nasiba Ganijon kizi	
Improvement of cost accounting at oil refineries in the republic of Uzbekistan.....	73
Makhkamova Saida Gayratovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali indeksini ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb etish orqali rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Axmadaliyeva Niholaxon	
Economic integration of central asian countries: reality and prospects.....	85
Vokhidova Mehri Khasanovna, Abdulaziz Erkaboev Baxromovich	
Assessment of prospects for effective use of current assets in oil and gas industry enterprises and identification of alternative scenarios.....	90
Mavlyanova Dilobar Makhkamovna	
Influence of the volume of industrial production in Uzbekistan on the import trend.....	97
Sherzod Igamberdiyevich Mustafakulov, Khasan Sabirov, Talibjonov Khurshidbek	
Ways of developing branding process in higher educational institutions.....	106
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Comparative analysis of green finance initiatives: a global perspective.....	111
Melikuzieva Dilrabo, Khidirov Nodir	
Improving analytical and synthetic accounting of costs and output in animal husbandry.....	117
Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
Результат инвестиций в человеческий капитал в Узбекистане.....	125
Искандарова Дилафруз Икром кизи	
Korporativ tuzilmalarda korporativ madaniyatni tahlil qilish va baholash usullari.....	131
Sadikova Muslima Alisher qizi	
Unified use of cluster systems in improving the economic efficiency of regional tourism development.....	136
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Improvement of accounting of authorized capital at joint-stock companies.....	146
Ortikov Ergashjon Yakubboevich	

Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va savdo hajmining o‘sishi: davlat siyosatining natijalari va imkoniyatlari.....	151
S.Turabov, Sh.Oybekov	
Raqamli biznesni kichik korxonalar faoliyatida rivojlanishi.....	156
Kambarova Shaxnozaxon Mirvoxitovna	
The role of artificial intelligence in taking full advantage of the benefits in agriculture and the cultivation of medicinal plants.....	161
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
Principles and organization of dividend policy development in joint stock companies.....	165
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
Innovative and production development of regional grape clusters in the Republic of Uzbekistan.....	172
Saidakmal S. Kasimov, Muhitdinov Asror Akobirovich, G‘ayratjon A. Alimov	
The value and advantages of artificial intelligence in foreign language teaching.....	177
Babayeva Komila Rishatovna	
Navigating the future of finance with digital currencies.....	181
Nimatullaev Khondamir Tursunboy ugli	
Sustainable practices in textile manufacturing: a shift towards eco-friendly marketing.....	186
Nosirova Charos	
Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat infratuzilmasini axborot tizimlari boshqarish usullari.....	192
A. Inyatov	
Davlat organlarida loyiha faoliyatini tashkil etishning xususiy sektordagi xususiyatlari.....	197
Irisqulova Munisa Akmal qizi, Sharipova Nigina Xamidbek qizi	
The impact of investment on economic growth: evidence from uzbekistan.....	202
Abdusalomov Marufjon Olimjon ogli, Toshbotirov Ulugbek Oktam ogli	
O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish.....	209
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, Mavlanova Nargiza Eshquziyevna	
Использование математических моделей в ии для разработки управленческих решений в электронной коммерции.....	216
Исохужаева Мунира Яшнаровна	
Jahonda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari.....	221
O.X.Xamidov, A.J.Abdullayev, N.F.Odinayeva	
Современные методы инициирования и осуществления платежей в Узбекистане: тенденции и правовое регулирование.....	228
Гайпов Жасур Бахром угли	
Instruments for stimulating the increase of investment activity in the regions of Uzbekistan to achieve macroeconomic stability.....	235
Srozhiddinova Zarina Khayriddinovna, Babajanova Lola Shopulatovna	
Improvement of long-term assets grouping as a priority of accounting organization in seasonal organizations.....	246
Kholbekov Rasul Olimovich	
Пути совершенствования ведения статистики труда в Республике Узбекистан на основе зарубежного опыта.....	250
Таирова Алия	
Проблемы в сфере оказания коллекторских услуг в зарубежной практике и возможности их преодоления.....	258
Тулураганова Шахноза Самукджановна	
O‘zbekiston va jahon sanoat iqtisodiyotining global muammolari va tendensiyalari.....	264
Yusupov Ulug‘bek Mamayusupovich	

MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Masharipov Farrux O'tkirovich,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
Professional ta'lim integratsiyasi boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, fuqarolarni chet elga tartibli va xavfsiz jo'natish, tashqi mehnat bozoridagi ish beruvchilarning ehtiyojlari asosida maqsadli kadrlar tayyorlash, fuqarolarning mehnat va yashash sharoitlarini hamda mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha mavjud muammolar va ularning echimlari keltirilgan. Shuningdek, mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat bozori, ichki va tashqi mehnat bozori, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Birlashgan Millatlar tashkiloti, konventsiya.

KIRISH

Dunyoda jadal globalizatsiya jarayoni davom etayotgan bir vaqtda mamlakatimizda ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Davlatimiz rahbari tomonidan 2017 yildan boshlab tashqi siyosatda ochiqlik va yaxshi qo'shniçilik hamda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish orqali migratsiya jarayonlarini ham tartibga solish va fuqarolarni xalqaro mehnat bozorida kafolatlangan tartibli qonuniy mehnat migratsiyasiga jalb qilish tizimi takomillashtirildi.

Dastaval migratsiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak "Migratsiya" so'zi lotincha "migratio" so'zidan olingan bo'lib, "ko'chish" ma'nosini anglatadi. Migratsiya - insoniya t tamaddunidan buyon mavjud bo'lgan muqarrar hodisa hisoblanadi. Xalqaro migratsiya tashkilotining ta'rifiga ko'ra, o'zining huquqiy maqomi, ixtiyoriy ko'chishi, ko'chish sabablar yoki biror davlatda qolish muddatidan qat'iy nazar o'z yashash joyini o'zgartirgan fuqarolar migrant hisoblanadi.

Bugungi kunda insonlar, yashash, ishlash, dunyoni ko'rish, sayohat qilish, o'qish va moddiy ahvolini yaxshilash kabi maqsadlarda doimo turli hududlar, turli davlat bo'ylab harakat qiladilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'rificha, o'z mamlakati hududidan tashqari bir mamlakatda bir yildan ortiq istiqomat qilgan fuqarolar migrant bo'la oladi. Davlatni tark etish sababi muhim ahamiyat kasb etmaydi. O'z xohishi bilanmi, xohishidan tashqarimi, buning ahamiyati yo'q.

Jahon iqtisodiyotining turli sohalarida avj olayotgan globallashuv jarayonlari davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ortishiga, alohida faoliyat ko'rsatayogan bozorlarni erkinlashishiga va ularni xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda dunyoning 200 ta mamlakati xalqaro mehnat bozorida faol ishtirok etmoqda.

XXI asr boshlariga kelib dunyo davlatlarida migratsiya jarayonlari kuchaydi. Mutaxassislar tomonidan bu jarayonda ishtirok etayotgan fuqarolarni oltita guruhga ajratganlar:

1. Oilaviy sabablarga ko'ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan emmigrantlar.
2. Migrant - mehnatkashlar.

3. Noqonuniy immigranlar.
4. Qochoqlar.
5. Talabalar, stajyor-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va professor-o'qituvchilar.
6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar-turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar.¹

Bugungi kunda migratsiya jarayonlarini tahlil qiladigan bo'lsak mamlakatlarda migratsiyaga sabab bo'layotgan eng katta faktor bu iqtisodiy vaziyatdir. Ko'pchilik fuqarolar yaxshi hayot ilinjida o'z mamlakatini tark etadi. Ular mehnat qilish, yaxshi daromad topish va farovon hayot kechirish maqsadida borayotgan davlati va o'z mamlakati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi.

Mamlakatimizda ham tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, davlat noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurashmoqda, fuqarolarni horijga uyushgan holda ishga joylashtirish uchun tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonga qaytgan mehnat migrantlarni reintegratsiya qilish jarayonlariga ham e'tibor berilmoqda. Birgina misol 2024-yil 4-aprel kuni Davlatimiz rahbari tomonidan "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Mazkur Farmon bilan xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Migratsiya muammosi so'nggi yillarda jahon jamoatchiligini keng tashvishga solayotgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shunga ko'ra, uni ilmiy jihatdan tahlil etish va ilgari surilayotgan yondashuvlardagi umumiylikni aniqlash hamda yakuniy xulosalar chiqarish muhim hisoblanadi.

Migratsiya nazariyasining asoschisi Buyuk Britaniya lik geograf E.Ravenshtayn hisoblanadi. U XIX asr oxirida "Migratsiya qonuni" yaratgan hamda migratsiya bo'yicha bir qator nazariy tadqiqot ishlarini olib borgan. E.Ravenshtayn tomonidan Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsion jarayonlarni tadqiq etib, o'n bir nafar migratsion qonunlarni shakllantirgan.

Rus olimi O.D.Vorobyov o'z asarlarida aholi migratsiyasi masalasiga to'xtalib, bunda aholining ichki va tashqi ma'muriy-hududiy birliklar chegarasidan kechib o'tib, doimiy yashash joyini o'zgartirish yoki yetaklovchi va jalb qiluvchi omillarning ta'siridan qat'iy nazar ta'lim olish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida amalga oshirilgan har qanday hududiy ko'chishni aholi migratsiyasi sifatida ta'riflaydi.²

E.V.Vinogradova migratsiyani zamonaviy yondashuvlar orqali tahlil qilib mehnat resurslarining harakatchanligiga oid quyidagi yondashuvlarni ilgari suradi:

mehnat resurslarining ish o'rinlari o'rtasidagi joylashish jarayoni;

ko'chishga tayyorgarlik;

iqtisodiyotda band aholining hududiy nisbatlarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmiga asoslanganligi.³

N.M.Preobrajenskaya deyarli barcha davlatlar nafaqat migratsiya jarayonlarida ishtirok etadilar balki ularning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, madaniy hayoti migratsiyaga bog'liqdir deb ta'kidlaydi.⁴

Rus iqtisodchisi Yu.A.Yanovskiy migratsiya jarayonlarini quyidagicha tavsiflaydi: u o'zini va oilasini moddiy jihatdan ta'minlaydi, demak, mamlakat boyiydi, sohasi bo'yicha o'zini malakali deb hisoblaydi yoki mehnat bozorida (o'z yurtida va xorijda) talab qilinadigan u yoki bu mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tadi, mamlakatning soliqqa tortiladigan bazasini kengaytiradi⁵.

G.Abduraxmonova, E.Muhitdinovlarning Respublikamizning xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etishi uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va boshqa bir qancha iqtisodiy afzalliklarga ega bo'lishiga imkoniyat yaratishini ta'kidlashgan⁶.

¹ К.Абдурахмонов - "Меҳнат иқтисодиёти" назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Фан нашриёти. Тошкент - 2019 йил.

² Воробьева О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики// Аналитический сборник, 2003. №9.(202).-С.35.

³ Виноградова Е.В. Международная трудовая миграция // МЭМО. 1994.№2.-С.18

⁴ Н.М. Преображенская Миграция в условиях глобализации // Автореферат. М. 2007. 12 с.

⁵ Яновский Ю.А. Международный Конгресс «Евразия: занятость в XXI веке» Международный семинар по трудовой миграции. М:2001.

⁶ "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали 4-сон. Тошкент 2018 йил июл-август.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda mehnat migratsiyasi sohasini tartibga solish bo'yicha huquqiy tamoyil va normalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Migratsiya tashkilotiga a'zo bo'ldi va XMT Konstitutsiyasini ratifiqatsiya qildi. "Xorijda yashovchi va mehnat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha davlat siyosati konsepsiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.⁷

So'ngi besh yilda 10 dan ortiq migratsiya sohasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi, "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonun va "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"gi hamda "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari qabul qilindi⁸.

Mazkur Farmon va qarorlarda O'zbekiston fuqarolarining shaxsiy xavfsizligi va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, noqonuniy mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda migratsiyani tartibga solishni samarali tashkil etish uchun uning tashkillashtirilgan yoki rasmiy migratsiyani rag'batlantirish yo'li orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlarining mehnat migratsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari hamda fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi barobarida migratsiya jarayonlari ham globallashti. Tashqi migratsiya jarayonlari bugungi kunga kelib turli mintaqa va mamlakatlarni o'z doirasida qamrab olmoqda.

Xalqaro migratsiya jarayonlarining kengayishiga dunyoning turli nuqtalarida yuz berayotgan urushlar, qurolli to'qnashuvlar, davlatlardagi siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, har xil tabiiy ofatlar, suv toshqinlari, shuningdek dunyoda keng tarqalayotgan yuqumli kasalliklarning tarqalishi hamda iqlim o'zgarishi kabi salbiy o'zgarishlar sabab bo'lmoqda.

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda dunyoda migrantlar soni 281 millionni tashkil etadi. Bu esa dunyo aholisining 3,6 foiziga to'g'ri keladi. Ularning 135 millioni ayollar, 146 millionini erkaklar hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda sayyoramiz aholisining har 7 nafaridan birini aynan migrantlar tashkil etmoqda. Ularning yillik pul o'tkazmalarining umumiy aylanmasi esa, 350 milliard dollarga teng bo'lib, mazkur ko'rsatkich, rivojlalanyotgan davlatlarga moddiy ko'mak berishga yo'naltirilgan sarf-xarajatlardan sezilarli darajada yuqori hisoblanadi.⁹

Taqqoslash uchun, 1970-yilda dunyoda 84 millionga yaqin migrant bo'lgan bo'lsa, 1990-yilda 153 millonga etgan, 2013-yilda 230 millionni, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 281 millionga etdi. Aholining katta qismi ishsizlik, iqtisodiy muammolar va ta'lim kabi sabablarga ko'ra migratsiya qilishga majbur bo'lmoqda. Ba'zilar harbiy to'qnashuvlar, ta'qiblar, tabiiy ofatlar yoki boshqa fojiali hodisalar tufayli o'z mamlakatini tark etishga majbur bo'lishmoqda.

Xorijga ishlash maqsadida chiqib ketgan fuqarolar nafaqat mehnat qilish uchun borgan davlati, balki o'zi tug'ilib o'sgan va istiqomat qiladigan mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga ham katta hissa qo'sha oladi. Shu munosabat bilan, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, davlat tomonidan ularning mamlakat hududida ham, uning tashqarisida ham ishonchli ijtimoiy va huquqiy himoya kafolatlarini kuchaytirish maqsadida mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish barcha davlatning kun tartibidagi asosiy masalaga aylanishi lozim.

⁷ Д.К.Исраилова – "Ташқи меҳнат миграциясини тартибга солишнинг институционал механизмларини такомиллаштириш" "Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали" илмий электрон журнали, 2023 йил 4-сон.

⁸ <https://lex.uz/uz/docs>.

⁹ Д.Мадаминава - "Якин Шарқ Араб давлатларида миграцион жараёнларнинг замонавий ҳолати". Oriental Journal Of History Politics and law.

Mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT) va Xalqaro Mehnat Tashkiloti(XMT) tomonidan mehnat migrantlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini va mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha bir qancha Konvensiyalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan,

Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 188 ga yaqin Konvensiya va 200 ta tavsiyalar qabul qilingan. XMT o'z faoliyati davomida mehnat migratsiyasi jarayonlari va mehnat migrantlari huquqlari himoyasi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada tashkilot tomonidan 3 ta Konvensiya qabul qilingan. Bular, **“Mehnat migrantlarining huquqlari to'g'risida”**gi XMTning 1949-yildagi 97-sonli, **“Migratsiya sohasidagi suiiste'molliklarni bartaraf etish va mehnat migrantlariga imkoniyat va munosabatlarda tenglikni ta'minlash to'g'risida”**gi XMTning 143-sonli va **“Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida”**gi 1990-yildagi Konvensiyalar.

Mazkur uchta Konvensiya **“Migratsiya to'g'risidagi xalqaro xartiya”**, deb nomlanadi va migrantlarning huquqlarini belgilaydigan keng huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu Konvensiyalar migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo'yicha ham, xalqaro hamkorlik uchun hamda halqaro ishchi kuchini hisobga olgan holda milliy maqroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 1951-yilda xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solish maqsadida Xalqaro Migratsiyasi Tashkiloti tashkil topgan bo'lib, bugungi kunga qadar tashkilotga 183 mamlakat a'zo bo'lgan. Tashkilotning asosiy maqsadi migratsiya jarayonlarini boshqarish, insonlar manfaatini himoya qilish va odam savdosiga qarshi kurashish va uni oldini olish hisoblanadi.¹⁰

Respublikamizda migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi organ Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hisoblanadi. Agentlik mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga soladi va fuqarolarni xorijga tashkillashtirilgan holda yuboradi hamda chet el fuqarolarining respublikamiz hududidagi mehnat faoliyatini tartibga soladi.

Bundan tashqari, fuqarolarini vaqtincha xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashqi mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganadi hamda xorijiy ish beruvchilar va rekruting agentliklar bilan shartnomalar tuzadi. Shu bilan birga, fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlash jarayonlarini tartibga solishga doir masalalar yuzasidan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qiladi.¹¹

Agentlik 2023-yilda 24 ta xorijiy davlatlarning 398 ta yirik ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan muzokaralar olib borgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 354 tani tashkil etgan.

Shuningdek, xorijiy ish beruvchilar va rekruting agentliklari bilan hamkorlikda O'zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo'yicha 118 ta shartnomalar imzolangan hamda kelishuvlar soni 268 taga, hamkorlik o'rnatilgan davlatlar soni 28 taga etkazilgan.

Buning natijasida, 16 ta xorijiy, shundan, 10 ta iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda 117 mingga yaqin bo'sh ish o'rinlari aniqlandi va 66,4 ming ish o'rniga dastlabki talabnomalar shakllantirilgan.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 2022-yilda 35,8 ming nafar fuqarolar xorijiy davlatlarga ishlash uchun yuborilgan bo'lsa 2023-yilda bu ko'rsatkich 38,4 ming nafarga etgan. Shundan, 12 271 nafari Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan, 113 nafari Xususiy bandlik agentliklari tomonidan tashkiliy tartibda, 24 340 nafari manzilli tarzda va 1 677 nafar fuqarolar xorijda ishsiz bo'lib qolganda ishga joylashtirilgan.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan manzilli ishga joylashgan fuqarolarni ro'yxati, ish beruvchilari va borish manzillari to'g'risidagi ma'lumotlari **“labor-migration”** dasturiy majmuasi orqali amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur elektron dastur orqali xorijga ishlash maqsadida chiqib ketayotgan fuqarolarning hayoti va sog'lig'i sug'urta qilinadi hamda ularga tegishli mikroqarzarlar ajratiladi. Xorijda ishsiz kolgan fuqarolar vakolatxonalar tomonidan Agentlik bilan shartnomaga ega va boshqa korxonalariga ishga ishga joylashtirilmoqda. Shuningdek, fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida **“labor-migration”** elektron platformasi orqali xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniya larini bo'sh ish o'rinlari doimiy ravishda yangilab kelinmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan ishlab chiqilgan **“labor-migration”** dasturiy majmuasi xorijda ishlashni rejalashtirayotgan fuqarolarga katta qulayliklar yaratmoqda. Ushbu tizim orqali fuqarolar manzilli ravishda xorijiy ish beruvchilar bilan bog'lanish imkoniga ega bo'lib, o'zlariga mos ish joyini topishlari osonlashadi. Bu jarayonni tezlashtirish va qulay qilish maqsadida tizimda xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif etilgan bo'sh ish o'rinlari doimiy yangilanib boriladi. Shu tariqa, fuqarolar o'zlari uchun eng maqbul bo'lgan ish sharoitlarini tanlab, ishga joylashish imkoniyatini oshiradilar.

¹⁰ З.А.Қодирова - “Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви”. Монография. - Т. Иқтисодиёт, 2016 йил.

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 12 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикаси фуқароларани хорижда уюшган ҳолда ишга жойлаштириш тизимини янада такомиллаштириш тизимини янада такомиллаштириш ва тубдан қайта кўриб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” 725-сон қарори. <https://lex.uz>.

2022-yilda Agentlik orqali tashkiliy tartibda xorijiy davlatga ishga joylashtirilgan 12,2 ming nafar fuqaroning 41 foizi rivojlangan va ish haqi yuqori bo'lgan (1,2 – 2,5 ming AQSh doll.) davlatlarga yuborilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 62 foizga oshirilgan.

2023-yil xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish istagida bo'lgan 58,2 ming (2022-yil 55,3 ming) nafardan ortiq fuqarolar kasb-hunarga (56,7 ming) va chet tillariga (1,5 ming) o'qishga jalb qilingan.

Nomzodlarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish jarayonlari professional ta'lim muassaslari, "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarida tashkil qilinmoqda.

Shu bilan birga, 2023-yil xorijiy davlatlardagi 226,2 ming nafar mehnat migrantiga huquqiy, moddiy va ijtimoiy yordamlar hamda axborot-maslahat xizmatlari ko'rsatildi. Shundan:

1 499 nafariga 79,4 ming AQSh dollari miqdorida bir martalik moddiy yordam berildi (BHM 2 baravari);


707 nafar og'ir ahvolga tushib qolgan fuqaro, 618 nafar vafot etgan fuqaroning jasadi O'zbekistonga qaytarildi;

12,8 ming nafar fuqaroga huquqiy, 13,4 ming nafar fuqaroga ijtimoiy yordamlar ko'rsatildi;

ish beruvchilaridan mehnat migrantlarining 1 737,5 ming AQSh dollari miqdoridagi ish haqlari, kompensatsiya va sug'urta pullari undirib berildi;

197 ming nafar fuqaroga "Call-markaz", Agentlik, uning filiallari va vakolatxonalari, diplomatik muassasalar tomonidan axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatildi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 2024-yilning birinchi choragida 23 535 nafar fuqarolarga Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, BAA, Germaniya, Latviya, Belarus, Litva, Yaponiya, Polsha va boshqa davlatlarda tashkiliy va manzilli tartibda ishga joylashishiga ko'maklashildi. Shuningdek, 73 mindan ortiq fuqarolarga turli axborot, huquqiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi hamda 827 nafar fuqarolarga moddiy yordam berildi. Og'ir ahvolga tushib qolgan 197 nafar fuqarolar O'zbekistonga olib kelingan(1-rasm).



1-rasm. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan rivojlangan davlatlardagi ish beruvchilar va rekruting agentliklari bilan hamkorlik o'rnatilgan davlatlar bo'yicha ma'lumot


Bundan tashqari, kasblar miqyosida ko'radigan bo'lsak yuk avtomobil haydovchisi kasbiga - 12,3 ming, payvandlash - 11,3 ming, elektrikga - 3,3 ming, IT mutaxassiga - 6,7 mingtani tashkil etgan.

Xorijdagi vakolatxonalari aralashuvi bilan fuqarolarning ish beruvchilaridan 186 ming AQSh dollariga yaqin ish haqlari undirib berildi.

Bundan tashqari, xorijda ishlash istagida bo'lgan 13 476 nafar fuqaroga 30 ta turdagi kasblarni o'rgatishga va 2 980 nafar fuqarolar nemis, ingliz, koreys, yapon va boshqa chet tillariga o'qishga jalb qilindi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning ish beruvchilari va rekruting agentliklari bilan O‘zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo‘yicha 28 ta shartnoma imzolandi.¹²

Bugungi kunda hukumat tomonidan xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o‘zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o‘rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o‘rganish hamda hal qilish bo‘yicha yangi tizim joriy qilindi. Shuningdek, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi tashkil etildi, mehnat migrantlarining hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash, ularning oila a‘zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy qilindi(2-rasm).



2-rasm. 2023-yilda Xorijiy davlatlarning ish beruvchilari tomonidan taqdim etilgan bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi talabnomalar.

Shu bilan birga, O‘zbekistonga qaytan mehnat migrantlarining bandligini ta‘minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lganlarga moddiy yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Tashqi mehnat migratsiyasini qonuniy asoslarda tashkil qilish, davlatlarning ushbu sohada samarali hamkorlikni amalga oshirish hamda migratsiya bo‘yicha xalqaro standartlarga amal qilish mehnat migrantlari huquqlari ta‘minlanishining asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Shuningdek tashqi mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bunda yoshlarni zamonaviy kasb va mutaxassislik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Ta‘lim muassasalarda tayyorlanayotgan kadrlarning salohiyati tashqi mehnat bozoridagi ish beruvchilarni qoniqtirmaydi. Mehnat bozoriga har yili o‘rtacha 700-750 mingga yaqin yangi ishchi kuchi kirib kelishi O‘zbekistonning tashqi mehnat bozoridagi faol ishtirokini ta‘minlash imkonini bermiqda.

Tadqiqotlar natijasida mehnat migratsiyasida ishtirok etayotgan fuqarolarning kasbiy malakasi va chet tilini bilish darajasi yuqori bo‘lishi ilg‘or texnika va texnologiyaga asoslangan, yuqori ish haqiga ega bo‘lgan

¹² Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Statistika agentligining rasmiy veb-saitlaridan olingan ma‘lumotlardan foydalaniildi.

ish o‘rinlarida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, tashqi mehnat bozori ehtiyoji asosida malakali kadrlar tayyorlash tizimining sifat jihatdan takomillashtirish bo‘yicha 5 ta bosqichdan iborat quyidagi mexanizmni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan:

Birinchi bosqich: har bitta hududdan bittadan professional ta‘lim muassasalari (ko‘p tarmoqli texnikumlar) Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga birlashtiriladi. Agentlik tomonidan mazkur professional ta‘lim muassasalariga xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniya lari ehtiyoji asosida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash.

Ikkinchi bosqich: Ish beruvchilarning talablari asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich: Bitiruvchilarni xorijiy til bo‘yicha bilimlarini xalqaro tan olingan uslublar asosida baholash. (IELTS, TOEFL va Goethe-Zertifikat, CEFR).

To‘rtinchi bosqich: Bitiruvchilarni yakuniy imtihonlari bevosita xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniya lari vakillari tomonidan baholash.

Beshinchi bosqich: Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan kamida B2 darajadagi xalqaro tan olingan xorijiy til sertifikatini olgan bitiruvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga yuborish, V1 darajadagi xalqaro tan olingan xorijiy til sertifikatini olgan bitiruvchilarni “Ausbildung” (dual ta‘lim shakli) asosida yuborishni tashkillashtirish.

Yuqorida keltirib o‘tilgan mexanizm orqali tashqi mehnat bozori ehtiyoji asosida maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi joriy etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat migratsiyasi jarayonlari o‘sisdan to‘xtamaydigan jarayon hisoblanadi. Shu munosabat bilan fuqarolar uchun xalqaro mehnat bozorida munosib mehnat qilish uchun sharoit yaratish hamda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish maqsadida “Tashqi mehnat migratsiyasi” to‘g‘risidagi Qonunni qabul qilish lozim. Shu o‘rinda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi:

- Tashqi mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish uchun bugun va istiqbolda qanday mutaxassislarni qancha miqdorda tayyorlash hamda ular qanday kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerakligini aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatini to‘liq qayta ko‘rib chiqib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridan Vazirlar Mahkamasi huzuriga o‘tkazish. Bunda Agentlik xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalari bilan, shuningdek manfaatdor vazirlik va idoralar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash imkoniyati yaratiladi;

- O‘zbekiston uchun mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish maqsadida Yevropa davlatlari, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Turkiya, Arab davlatlari, Koreya va Yaponiya davlatlari bilan uyushgan migratsiyani rivojlantirish maqsadida mazkur rivojlangan davlatlarning ish beruvchilari va rekruting kompaniyalari o‘rtasida O‘zbekistonning mehnat migratsiyasi tizimi qulayligini targ‘ib qilish. Bunda: Xorijiy rivojlangan davlatlarning ish beruvchilari va rekruting kompaniyalarini jalb qilgan holda O‘zbekistonning mehnat resurslari potentsiali mavzusida forumlar tashkil qilish. O‘zbekiston uchun mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish juda muhim. Bu bir necha sabablarga ko‘ra:

1. Iqtisodiy xavflarni yumshatadi va mamlakatning iqtisodiy inqirozlarga bardoshlilikini oshiradi.
2. Mamlakat iqtisodiyoti uchun xorijdan yuboriladigan pul o‘tkazmalarini kengaytiradi.
3. Rivojlangan davlatlarda mehnat qilish fuqarolarga yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlash hamda kasbiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi.
4. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ishlash mehnat bozoridagi diversifikatsiyani oshiradi, bu esa xalqaro iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni. lex.uz/docs/-6868721

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 725-son qarori. lex.uz/ru/docs/-3903307

3. Qalandar Abdurahmonov – “Mehnat iqtisodiyoti” nazariya va amaliyot darslik. Iqtisodiyot nashriyoti. Toshkent 2019-yil.
4. D. Madaminova - “Yaqin Sharq Arab davlatlarida migratsion jarayonlarning zamonaviy holati”. Oriental Journal of History, Politics and Law.
5. Воробёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики // Аналитический сборник, 2003. №9.(202).-С.35.
6. Vinogradova E.V. Mezhdunarodnaya trudovaya migratsiya // MEMO. 1994. №2.-S.18.
7. N.M. Preobrazhenskaya. Migratsiya v usloviyakh globalizatsii // Avtoreferat. M. 2007. 12s.
8. Яновский Ю.А. Международный Конгресс «Евразия: занятость в XXI веке». Международный семинар по трудовой миграции. М: 2001.
9. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 4-son. Toshkent 2018-yil iyul-avgust.
- 10.D.K. Isroilova - “Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish” “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2023-yil 4-son.
- 11.Z.A. Qodirova, S.S. Gazieva - “Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning uslubiy asoslari”. Iqtisodiyot va moliya. 2021-yil.
- 12.Z.A. Qodirova - “Globallashuv sharoitida O‘zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvi”. Monografiya. - T. Iqtisodiyot, 2016-yil.

Internet saytlar:

13. <https://mehnat.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy sayti.
14. <https://stat.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.
15. <https://my.labormigration.uz> — Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi.

